

## BUXGALTERIYA TARIXI VA UNING HAYOTGA TATBIQI

*Mustafayeva Ruxshona Dilaminjon qizi*  
*Toshkent davlat kimyo-texnologiya instituti*  
*“Buxgalteriya hisobi” yo‘nalishi I-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada buxgalteriyaning asosiy mazmuni, u qanday soha va boshqa sohalarga qanchalik aloqadorligi va iqtisodiy tarmoqlardagi ba'zi sohalar bilan o'xshash va farqli tomonlari, kelib chiqish tarixi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Аннотация:** В статье излагается основное содержание бухгалтерского учета, его предметная область и взаимосвязь с другими областями, а также его сходства и различия с некоторыми направлениями в отраслях экономики, представлена история его возникновения.

**Abstract:** This article provides information about the main content of accounting, its field and its relationship to other fields, its similarities and differences with some areas of economy, and its history origin.

**Kalit soʻzlar:** buxgalteriya, iqtisodiyot, moliya, accounting, hisob.

**Ключевые слова:** бухгалтерский учет, экономика, финансы, учет.

**Keywords:** accounting, economics, finance, account.

Bugungi kunda barchamizga judayam tanish bo'lgan “Buxgalteriya” bu soʻz bu soha hayotimizning ajralmas qismi desak ham bo'ladi. Bu soha-da kadrlar ko'p bu soha uchun ish ko'p va bu soha bilan shug'ullanish ham oson emas. Buxgalteriya, hisob yoki bugungi zamonaviy til bilan ayt-ganda “accounting”-har bir sohaning poydevori desak ham xato bo'lmaydi. Chunki biron-bir beznes boshlash uchun, avvalombor, biz bu ishni boshlash uchun ketadigan xarajatlarni hisoblab olishimiz kerak. Yoki shifoxonada, maktabda, ofisda va uyda ham harajatlarni hisoblab harajat qilishimiz kerak. Bularning barchasi- Buxgalteriya.

Xo'sh hayotimiz uchun muhim bo'lgan bu-Buxgalteriya o'zi nima?, u qachon?, qayerda?, qanday? Paydo bo'lgan.

Buxgalteriya-bu qadimda “hisob” nomi bilan yuritilgan soha bo'lib, qadimdan ancha sodda shaklda paydo bo'lib, rivojlanib kelgan. Hisob, hisobchilik manbalarga ko'ra, miloddan avvalgi IV ming yillikda Mesopotamiya hozirgi G'arbiy Osiyo hududlarida turli mahsulotlarni hisob- kitob qilish orqali vujudga kelgan va hisob-kitobning yana bir shakli Misrda soliq yig'ish orqali namoyon bo'lgan. Hisob o'sha davrlarda ham juda kerakli murakkab bo'lgan. Chunki qadimgi davrlarda ko'pchilik savodsiz bo'lgan va hatto oddiy dehqon va chorvadorlar ham o'z yerlaridan olingan hosilni va chorva mollarining miqdorini bilish uchun hisobchilar-ga murojaat qilishi

kerak bo'lgan, lekin ularning ko'pchiligining hisobchi yollash uchun juda katta miqdorda pul, mahsulot yoki chorva moli berish kerak bo'lgan, buni to'lashga imkoni yo'qlar o'z mulklari miqdori, qiymati bo'yicha ko'plab muammolarga duch kelishgan. Hisob ilmiga ega bo'lgan kishilar hukmdorlar yoki juda katta boylikka ega bo'lgan zodagonlar qo'lostida xizmat qilishgan.

**Buxgalteriya**-ushbu so'z olmoncha "Buchhalter" so'zidan olingan bo'lib, korxona, zavodlarning moliyaviy ishlarini yuritish va nazorat qilish degan ma'nolarni anglatadi, yanayam soddaroq aytadigan bo'lsak: hisob, hisob-kitob qilish degan ma'nolarni beradi.

**Accounting**-hozirgi zamonaviy tilda ko'p qo'llanilayotgan ushbu so'z inglizchadan olingan bo'lib, "hisob ishi" degan ma'noni anglatadi ya'ni hisoblash.

Yuqoridagi ikki so'z ham umuman olganda "hisob" degan ma'noni anglatadi. Hisob esa narsalarning, odamlarning, mahsulotlarning deyarli borliqdagi barcha narsaning qiymatini, miqdorini tartiblash va qanchaligini aniqlashni anglatadi.

Eng qadimdan ham insonlarni "hisob" ishiga ehtiyoji bo'lgan va ular hozirgi hisob-kitob ishining soddaroq shakllaridan foydalanishgan. O'rta Osiyo xalqi musulmon bo'lganligi uchun, ular har qanday ishdagi hisobning to'g'riligiga juda katta ahamiyat berishgan. Ayniqsa savdogarlar hisobchi lavozimiga juda halol va o'z ishini juda yaxshi biladigan insonlarni olishgan. Chunki savdo ishi hisobiga noaniqlik yoki xato paydo bo'lsa, bu ular uchun zarar olib kelishi yoki xarom bo'lishi mumkin. Musulmonlarning xarom luqma yeyishi gunoh sanaladi. Shuning uchun ular hisob ishlariga juda katta e'tibor berishgan. O'tmishda o'tgan buyuk savdogar Abdulloh o'z savdo ishidagi hisobchini nihoyatda ziyraklik bilan ishga qa-bul qiladi, hisob ilmini biladigan bir yigitni, avvalombor, bir do'stining savdo ishlari hisobini qilishga yollaydi va u yerda 2 yil u yigitning halollik va aniqlik bilan ishlaganini ko'rib keyin o'z savdo ishining hisobini yuritishga yollaydi. O'sha paytda uning savdo ishi chalkashliklarga uchragan bo'ladi lekin, u yigit bu ishlarni tez fursatda hal qilib, qaysi qismlarda xatolik ketganligini aytadi. U yigit bir savdogarning hisob ishini yuritish uchun 7 ta daftar ishlatadi. Daftarlarning biriga kiritilgan sarmoyani, boshqasiga foydani, yana biriga foydadan beriladigan ehsonni va shunday qilib boshqalariga ham yozib, aniq hisobga erishadi. Biz buni ham hisob-kitobdagi bir prinsip sifatida olishimiz mumkin, yani foydani qayerdan kelishi, qayerga sarflanishini alohida yozib ish yuritsak hisob-kitob ishida aniqlikka erishamiz. Men o'zim ham do'konda sotuvchi bo'lib ishlaganimda do'kon xarajatlari, kirim-chiqimlar daftari bitta bo'lgan payt juda ko'p chalkashliklarga duch kelganman va bu kitobni o'qigandan so'ng men ham ikkita daftarga alohida qilib biriga kirimlar, ikkinchisiga chiqimlarni yozganimda ishim ancha osnlashgan edi va do'kon egasi ham bu prinsipni ma'qullab o'zi uchun ham qo'llagandi.

Hisob ilmini o'rgangan bu ilm rivojlanishiga o'z xissasini qo'shgan allomalar

orasida Aristotel va Al-Xorazmiy alohida o'rin egallaydi. Yunon faylasufi Aristotel asosan fizika, metafizika, siyosat, mantiq kabi fanlarni o'rgangan va bu fanlarning rivojiga o'z xissasini qo'shgan. U asosan narsalarni ayirboshlash bilan bog'liq o'zining ta'limotlarini o'zining asarlarida yoritib bergan. Ayirboshlanadigan narsalar ikki tomon uchun ham teng foyda keltirsa yoki tovar qiymatiga teng miqdordagi pul berilsa ayirboshlash adolatli bo'ladi. Shunda ikki tomon uchun ham foyda miqdori hisobda teng bo'ladi.

Turkiy xalqlar faylasufi Al-Xorazmiy esa o'zining algebraga oid asarlari bilan hisob-kitob qilishning usullarini o'rgatgan. Uning asarlarini qo'lyozmalarini yaxshi o'rgangan ilm o'rganuvchilar, hisob-kitobga usta bo'lishgan va hisobchilik ishlarini adashmasdan yuritganlar. Biz bugungi kunda ham Al-Xorazmiyning algebra faniga oid nazariyalaridan, ushbu fanni o'rganish uchun asosiy dastak sifatida foydalanamiz.

Aristotelning esa siyosat muammolari va ularning yechimlari bayon etilgan qo'llanmalaridan ham foydalanamiz.

O'tmishdagi buxgalteriya sohasining shakllari asosan qishloq xo'jalik mahsulotlari yoki soliq yig'ish hisobotlari bo'lgan bo'lsa bugungi kunda ham murakkablashgan va keng qamrovli sohani ko'rishamiz mumkin. Bugungi kunda buxgaltersiz biron-bir davlat idorasi yoki korxonalarni uchratmaymiz. Chunki buxgalter bo'lmagan korxonada hisob ishlari umuman chalkashib ketadi. Misol uchun korxonaning mahsulotlaridan kelgan daromadni bir nechta punktlarga ajratish kerak, dastavval, mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan daromadni o'rnini qoplashi, ishchilar uchun to'lanadigan oylik maoshlari va olingan sof foyda kabilar-ga bo'lib chiqib, bularning hisobotlarini korxona raxbarlariga aniq kamchiliklarsiz ko'rsatishi kerak. Agar buxgalter hisobot qilayotgan vaqtida bitta kichik xatoga yo'l qo'ysa ham butun korxonaning ishlari orqaga ketishi yoki inqirozga uchrashi mumkin.

Davlat idoralarida ham buxgalter yoki hisobchi lavozimiga qo'yiladigan xodimdan juda katta mas'uliyat talab etiladi. Davlat tomonidan ajratilgan mablag'ni korxona xarajatlariga va ishchilarining oylik maoshlariga to'g'ri yo'naltirishi zarur. Davlat idorasida ishlaydigan hisobchilar nodavlat korxonadagi hisobchiga qaraganda ikki karra mas'uliyatni o'z zimmasiga ola-di. Agar davlat idorasidagi moliyaviy hisobotlarda xatolik bo'lsa, bu jamiyatga xavf tug'diradi. Misol uchun bu idoraga nisbatan davlat chora ko'radi, xalqni ishonchini yo'qotadi, idora boshlag'i yoki hisobchi jinoiy javobgarlikka tortiladi, xalq orasida esa davlat idoralaridagi moliyaviy faoliyatiga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'lib, parokandalikka olib kela-di. Shuning uchun ham davlat idoralariga hisobchini ishga olishga alohida yondashishadi va qasddan yoki to'satdan qilingan moliyaviy hisobotdagi xatolariga nisbatan davlat tomonidan tegishli chora-tadbirlar va jazolar qo'llanadi. Shu sababli buxgalter, hisobchilardan o'z sohasining bilimdoni bo'lish, turli qonunlarni yaxshi bilish halollik, adolat, mas'uliyat bilan ishlash talab qilinadi.

Bugungi rivojlangan davrda iqtisodiyot, moliya, buxgalteriya, menejment, marketing kabi tushunchalarni deyarli har doim eshitamiz. Xo'sh uzi bular nima va bizga nima uchun kerak?

Rivojlanayotgan ko'plab mamlakatlarda iqtisodiyot va buxgalteriya tushunchalari keng qo'llaniladi. Ko'pchilikda ularning o'xshash va farqli tomonlari nima deb o'ylashadi. Avvolombor iqtisodiyot- yunonchadan olingan bo'lib "oikonomia -uy ro'zg'orni boshqarish" degan ma'noni anglatadi. Iqtisodiyot bu- sotiladigan, ishlab chiqariladigan, sotib olinadigan tovar va mahsulotlarni qayerga, qanday, qancha narxga sotish, sotib olish, ishlab chiqarishlarni o'rganadigan fan. Misol uchun, kimningdir mablag'i bo'lib u beznes boshlamoqchi bo'lsa, u albatta iqtisodiy bilimga tayanishi kerak, bozorda nima kam, lekin talab bor, nima yo'q, unga bo'lgan talab qay darajada, bozorda ko'p, talab ham ko'p bo'lgan ,ammo, yetarlicha insonlarni ehtiyojini qondira olmayotgan tovarni qanday mukammal qilishni o'rganishi, keyin ulardan birini tanlab olishi va uni yana qanday ishlab chiqarish yoki sotib olib, sotish prinsiplarini o'rganib chiqishi bu-IQTISODIYOT.

Buxgalteriya esa iqtisodiyot tarmoqlaridan biri bo'lib iqtisodiyotning moliyaviy hisobotlarini boshqaradi. Umuman olganda iqtisodiyot va buxgalteriya pul, boylik va resurslardan foydalanish, ular to'g'risida turli mulohaza va hisobotlar qilish va yuritishni o'rganadi.

Ularning farqi esa iqtisodiyot keng qamrovli tushuncha u o'z ishining har bir tomonini o'rganadi. Buxgalteriya- esa faqat moliyaviy tomondan iqtisodiyotni to'ldiradi. Misol uchun: 1ta kitobni sotib olib uni yana boshqa kishiga sotish kerak bo'lsa, uni eng arzon joydan, eng sifatlisini, talab katta joyga, institut hududiga borib sotish bu- iqtisodiyot bo'lsa, uni qancha narxga sotib olingan va sotilgan miqdori va undan qancha foyda qolganligini hisoblash bu-buxgalteriya hisoblanadi.

Bugungi kunda rivojlanayotgan iqtisodiyot sohasining yana bir tarmoqlaridan biri moliya sohasi ham keng tarqalgan. Moliyani buxgalteriya sohasi bilan solishtiradigan bo'lsak bunda moliyada ko'proq keng qamrovli fikrlash kerak bo'lsa, buxgalteriyada aniq hisoblash talab qilinadi. Moliyada umumiy korxonaning holati hisobot qilinsa, buxgalteriyada faqat daromad va harajatlar bo'yicha hisobot qilinadi. Moliyada ko'proq kelajakdagi ishlar rejalashtirilsa, buxgalteriyada o'tgan ishlar tahlil qilinadi, moliyada tovarlarni kelajakda qanday sotsa,qancha foyda, o'zgarish bo'lishini o'ylasa, buxgalteriyada pulni to'g'ri taqsimlasa yetarli. Moliya va buxgalteriyani shu tarzda bir- biridan farqlashimiz mumkin.

**Buxgalteriya**-bu hisob-kitob ishlarini yuritish, hisobot qilish. Umuman olganda barcha sohalarning asosiy tayanchi, iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri, har qanday mulkchilik xo'jaliklarini kuzatish, nazorat qilish, tahlil qilishdan iborat, aniq ma'lumotlarga asoslangan aniqlikni talab qiladigan soha. Bu soha bilan biz o'z ishlarimizda va jamiyat ishlarida rivojlanishga erishamiz. Chunki mablag'ni to'g'ri

sarflash doim ishlarning yuksalishiga olib boradi. Buxgalteriyani bilgan har bir inson o'z ishlarini doimo to'g'ri va aniq bajaradi. Chunki o'z pullarini qanday topishni va qanday sarflashni yaxshi biladi. Bundan tashqari u bezness sohada ishlasa o'z benessini maksimalni darajada rivojlantira oladi, faqat halolik bilan ishlasa va o'z ishini, sohasini yaxshi tushunsa. Buxgalteriya umuman olganda hamma soha va har kim uchun juda kerakli. Biz bu sohani o'rgansak hech qachon har qanday ishda ham hech qachon pand yemaymiz va doimo har qanday holatda o'zimiz uchun chiqish eshiklarini topa olamiz. Chunki har qanday sohada hozir moliyaviy qism muhim rol o'ynaydi va ko'pchilik muammolar ham aynan shu sohada, shu yo'nalishda paydo bo'ladi va buni yechish uchun bizga albatta bilim kerak bo'ladi va bu bilim buxgalteriya ilmi hisoblanadi.

Shunday ekan bu va bunga o'xashash fikrlarni o'tmishda ham takidlab aytishgan va bugungu kunda ham zamonaviy investorlar, ishbilarmon, tadbirkor va hatto davlat ishchilari ham hisob ilmining qanchalik muhim va hayotimizga moliyaviy muommalar qurshovida qolib ketmasligimiz uchun bu sohadan hech bo'lmaganda xabardor bo'lishimiz kerakligi aytishmoqda. Bu sohani o'rgatish uchu turli trening, master klas va tadbirlar turli davlat va nodavlat korxonalar tomonidan o'klazilmoqda. Bundan tashqari malakali buxgalterlar turli kurslar ochib katta-yu-kichikka o'z bilimlarini ulashishyapti va ularga o'z pullarini qanday sarflashni va qanday sohaga investitsiya kiritisa ko'proq foyda olish mumkinligi haqida sinalgan bilimlarni ulashishyapti.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A.Xolmuhammad o'g'li "Haqiqiy omad kaliti yohud Savdogarlar ustozlari" 2. 2023y.-B.160
2. H.M Azimova. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanidan o'quv uslubiy mahmua – 2022y.225-bet
3. <https://uz.wikipedia.org> Wikipidia